

## **O'QUVCHILARDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.93.30.019>

*Komilova Fotimaxon Mahmudovna*

*Andijon davlat universiteti umumiy pedagogika kafedrası  
v/b dosenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

*Annotatsiya: maqolada uzluksuz o'quvchi yoshlarni tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari va ularda liderlikni tarbiyalashning dolzarligi, tashkilotchilik sifatlarining samarali shakllanishi imkoniyatlari, o'qituvchi kasbiy mahoratining o'rni va uning o'ziga xos jihatlari yoritilib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: tashkilotchilik, uzliksiz ta'lim, sifatlar, boshqaruvchilik, intellektual salohiyat, mustaqil fikrlash, erkinlik, ijtimoiy faollik, liderlik.*

## **ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ**

*Комилова Фотимахон Махмудовна*

*Андижанский государственный университет, кафедра общей педагогики  
в/б доцент, доктор философских наук в педагогических науках (PhD)*

*Аннотация: в данной статье рассматриваются возможности непрерывного развития у учащихся организаторских способностей и актуальность развития в них лидерских качеств, возможности эффективного формирования организаторских качеств, роль профессии учителя и ее специфические особенности.*

*Ключевые слова: организация, непрерывное образование, качества, лидерство, интеллектуальный потенциал, независимое мышление, свобода, социальная активность, лидерство.*

## **POSSIBILITIES OF FORMATION OF ORGANIZATIONAL QUALITIES IN STUDENTS**

*Komilova Fotimakkhon Mahmudovna*

*Andijan State University, Department of General Pedagogy  
v / b associate professor, Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences.*

*Abstract.: This article discusses the opportunities for continuous student development of organizational skills and the urgency of developing leadership in them, the opportunities for effective formation of organizational qualities, the role of professional skills of teachers and its specific features.*

*Keywords: organization, continuing education, qualities, leadership, intellectual potential, independent thinking, freedom, social activism, leadership.*

Kirish. O'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik balki ijtimoiy muammo sifatida ham o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Tadqiqot muammosini nazariy va metodik jihatdan muvaffaqiyatli tadqiq etish tashkilotchilik, tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish tizimi kabi tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglash o'quvchilarida shakllantirish mumkin bo'lgan tashkilotchilik sifatlarini aniqlab olishni taqazo etadi.

Harakatlar strategiyasining davomi sifatida "Taraqqiyot strategiyasi"da ham jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, yosh avlodning

ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash kabi muhim vazifalarning amalga oshirilayotganligi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish orqali boshqaruvchilik faoliyatini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev aytganlaridek: Yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak ma'suliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Bizning asosiy maqsadimiz-yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz [1].

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari mavjud ekanligi, ammo, ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmayotganligi, boshlang'ich sinfda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlar, omillarning o'rganilmaganligi, texnologik yondashuvning qaror topmaganligi, sinfdan va darsdan tashqari sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim yo'nalishi e'tirof etilmaganligi ko'rsatadi. Kelgusida jamiyatning to'laqonli a'zosi va malakali mutaxassis sifatida ijtimoiy munosabatlar hamda kasbiy faoliyat jarayonida faol ishtirok etish, zimmadagi ijtimoiy burchlarni sidqidildan ado etishda shaxsning tashkilotchilik sifatlariga ega bo'lishi o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qanday darajada ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, ularda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish ham shu qadar muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada o'quvchilar jamoasi oldiga individual va umumiy pedagogik talablarni qo'yish mumkin. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda "jamoat a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Tabiiyki, yosh xususiyatlariga ko'ra o'quvchilari "tashkilotchilik" tushunchasining mohiyati, tashkilotchilik negizida aks etuvchi sifatlar, tashkilotchilik sifatlariga erishishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati, shuningdek, tashkilotchilik sifatlarini o'zlashtirish jarayonining kechishi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lmaydilar. Shu bois o'quvchilariga bu boradagi ma'lumotlarni berishda maxsus pedagogik ma'lumotga ega o'qituvchilar yoki ularning tarbiyasi uchun mas'ul asosiy su'yektlar ota-onalar muhim o'rin tutishadi. O'qituvchilar va ota-onalar tomonidan o'quvchilari oldiga aniq pedagogik talablarning qo'yilishi hamda ularning bajarilishi yuzasidan oqilona nazoratning olib borilishi mazkur davridayoq tashkilotchilik sifatlarining shakllanishiga zamin yaratadi [5].

Ilmiy manbalarda pedagogik talabning "O'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalari"dan iboratligi aytiladi [6].

Manbalar bilan tanishish, ilgari surilgan g'oyalarni nazariy tahlil qilish o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda quyidagi imkoniyat va yo'llarning samarali ekanligini ko'rsatdi: amaliy tadqiqot faoliyatini olib borishda pedagogik talablarning muayyan shartlar asosida bayon qilinishi ta'minlandi. Bunda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etdi:

- pedagogik talabalarni qo'yishda o'quvchilarning yosh, fiziologik, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olinishi;
- o'quvchilarni oldiga qo'yiladigan talablarning ular uchun tushunarli bo'lishiga erishish;
- pedagogik talablarning aniq va ravshan bayon etilishi;
- talablarning aniq maqsadga erishishga imkon berishi;
- pedagogik talablarning puxta o'ylanganligi;
- talablarning qat'iy ifodalanishi;

- talablarning o'quvchilari tomonidan inobatga olinishiga erishish;
- pedagogik talablarning o'quvchilar tomonidan bajarilish sifatini nazorat va tahlil qilib borish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalari ham oilalarda bolalariga nisbatan qo'yiladigan pedagogik talablarning bir xil bo'lishiga erishish.

Oila va umumiy ta'lim maktabida o'quvchilari oldiga qo'yiladigan pedagogik talablarning bir xilligi ushbu yosh davri o'quvchilari tomonidan ularning ahamiyatini noto'g'ri tushinishlari, bajarish oqibatlariga nisbatan mas'uliyatsiz yondashishlariga olib keladi. Qo'yiladigan talablarning qat'iy bo'lmasligi esa, o'quvchilar tomonidan ularning zarur darajada bajarilishiga imkon bermaydi. Shuningdek, o'quvchilarning pedagogik talablarni bajarishga bo'lgan imkoniyatlarini pasaytiradi. Ko'p hollarda esa pedagogik talablar bajarilmay qoladi. O'qituvchilar va ota-onalar tomonidan qo'yilayotgan talablar mutlaqo bajarilmagan holatlarda tegishli choralarni ko'rish pedagogik jihatdan to'g'ri sanaladi. Pedagogik talabning bajarilmasligi va uning oqibati uchun mas'ul shaxslarning e'tiborsizliklari navbatdagi talablarning ham bajarilmasligi uchun "zamin" yaratadi. Oqibatda o'quvchilarda sekin-asta har qanday faoliyatni bajarishga nisbatan mas'uliyatsizlik, intizomsizlik va tartibsizlik kabi xislatlar shakllanadi. Pedagogik talablarni qo'yishda ularning o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishdagi imkoniyatini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarining umumiy o'rta ta'lim maktablarida "O'quvchilar qoidasi" talablariga qat'iy va izchil rioya qilishlari ularda intizomlilik, tartiblikni tarbiyalashi bois tashkilotchilik sifatlarini shakllanishi uchun muhim qadam sanaladi.

**Muhokama.** Bugungi kunda o'quvchilar bilim olish, turli malaka va ko'nikmalarni egallashlarida yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, «Temurbeklar maktabi», «Prezident maktabi», «Ijod maktablari» deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyaalashga xizmat qilmoqda". Shunday ekan, zamon bilan hamnafas, yetakchilik va tashkilotchilik sifatleri shakllangan, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash borasidagi tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik manbalarda pedagogik talablarning quyidagi shartlarga javob berishi ijobiy natijani qo'lga kiritilishini ta'minlashi e'tirof etiladi:

- qo'yiladigan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;

- talabalar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;

- jamoaga nisbatan qo'yiladigan talablar aniq bo'lishi lozim;

- O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart [7]. Yuqorida pedagogik talabning qo'yilish shartlari to'g'ri ifodalangan bo'lsa-da, biroq, ularni yanada to'liq bayon etish maqsadga muvofiq ekanligini qayd etib o'tish lozim deb topildi. Bizning fikrimizcha, pedagogik talablarni bayon etishda o'qituvchi va ota-onalar quyidagicha shartlarga amal qilishlari zarur:

- qo'yiladigan pedagogik talab va uning maqsadini aniq belgilab olish;
- pedagogik talab mohiyatini o'quvchilarga tushuntirib berish;
- o'quvchilar tomonidan pedagogik talab mohiyatining tushunilganligini savol-javob asosida aniqlash;
- pedagogik talabning bajarilish muddatini qat'iy belgilash;

- o'quvchilar tomonidan pedagogik talabning bajarilishini nazorat va tahlil qilish. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, shu jumladan, oilalarda ham uzrli sabablarga ega bo'lgan hollardagina

qo'yilgan pedagogik talabni bekor qilish mumkin.

1. O'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini izchil shakllantirish anhanalarini tarkib to'tirish. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining larida o'quvchilarning tashkilotchilik sifatlariga ega bo'lishlari uchun imkon beruvchi anhanalarni tarkib toptirish ham bu borada amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat.

Natija. Shaxsni ijtimoiylashtirishga bo'lgan talabning ortib borayotganligi, shaxsiy imkoniyatlarni to'laqonli ro'yobga chiqarish va jamiyat, xalq, shuningdek, shaxs manfaatiga mos keluvchi turli faoliyat yo'nalishlari qobiliyatini namoyon etishga bo'lgan extiyoj o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini izchil, uzluksiz va tizimli shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi an'analarni qaror toptirish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantiriga doir an'analarning qaror toptirilishiga erishish taqozo etiladi.

Bizningcha, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Yosh tashkilotchi" harakatini izchil yo'lga qo'yilishi o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish yo'nalishida o'ziga an'ananing shakllanishini ta'minlagan bo'lar edi.

"Yosh tashkilotchi" harakati doirasida quyidagi vazifalarning ijobiy hal qilinishi o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini samarali shakllantirishga yordam beradi:

- o'quvchilari o'rtasida faol tushuntirish ishlarini tashkil etish orqali ularda ko'ngilli ravishda ijtimoiy topshiriq va vazifalarni bajarishga bo'lgan qiziqish va ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish;

-trening va psixotreninglarni uyushtirish asosida o'quvchilarda ijtimoiy faollik, mustaqillik, o'z-o'ziga ishonch, jamoa bilan bo'lishga intilish, tashabbuskorlik, ijodkorlik sifatlarini tarbiyalash;

-turli yo'nalishlarda "Ijtimoiy taklif" yoki "Ijtimoiy loyiha" tanlovlarini o'tkazish orqali o'quvchilarda o'z fikrini asoslash, bildirilgan taklifning samarali ekanligiga jamoa a'zolarini ishontira olish, jamoani o'z ortidan ergashtirish, liderlik va tolerantlik ko'nikmalarini hosil qilish. "Yosh tashkilotchi" harakati doirasida amalga oshiriluvchi tadbirlar to'g'risida ishning navbatdagi bandida batafsil to'xtalib o'tiladi.

3. O'quvchilar jamoasi imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish. Ishning avvalgi bandlarida aytib o'tilganidek, shaxsning jamoada va jamoa bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi unda tashkilotchilik sifatlarini samarali shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Jamoaning imkoniyatlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar oldiga qo'yiladigan talab va topshiriqlarni izchil bajarishda nihoyatda qo'l keladi. O'quvchilar tomonidan tashkilotchilik sifatlarining namoyon etilishida o'quvchilar jamoasi imkoniyatlari ularning maqsadni to'g'ri anglashlari, bir-birlarini tushuna olishlari, o'zaro yordam va hamkorlikka tayyor ekanliklarida ko'zga tashlanadi.

O'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda o'quvchilar jamoasi imkoniyatlaridan quyidagi shakllarda foydalanish mumkin:

- o'quvchilarga juftlik, guruh va jamoa asosida bajariladigan topshiriqlarni berish; -ularni guruh va jamoa ishtirokida o'ynaladigan o'yinlarga jalb etish;

- o'quvchilar tomonidan yakka tartibda, juftlik va guruh shakllarida, shuningdek, ommaviy ravishda hal qilinadigan amaliy mashqlarning bajarilishini ta'minlash.

4. O'quvchilar jamoalarining o'z-o'zini boshqarishiga erishish.

Har qanday shaxsda, shu jumladan, maktab o'quvchisida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda unga bildirilayotgan ishonch va berilayotgan erkinlik katta tarbiyaviy ta'sirga ega. O'quvchilariga ishonch bildirish va muayyan darajada erkinlik berish ular tomonlaridan har qanday pedagogik talab va topshiriqlarning ijobiy hal qilinishida samarali omil sanaladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar jamoalarining o'zini o'zi boshqarishlariga erishilishi ularda nafaqat shaxsiy imkoniyatlariga ishonchni yuzaga keltiribgina qolmay, shu

bilan birga jamoaning mavjudligini xis qilish, uning tarbiyaviy ta'sirini munosib baholashga ham imkon beradi. O'quvchilar jamoasining o'zini-o'zi boshqarishi "pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan o'z jamoasi ishini uyushtirish va boshqarishda faol ishtirok etish"ni anglatib, u jamoaviylik negizida o'quvchilarining tashkilotchilik sifatlariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ta'lim muassasalarida tashkil etilgan o'quvchilar jamoasi o'z o'zini boshqarish organlariga o'quvchilarining ham faol jalb etilishi ularda mustaqillik, liderlik, ijtimoiy faollik kabi sifatlarini nafaqat shakllantiradi, balki yanada rivojlantirishga ham yordam beradi.

Yuqori sinf o'quvchilari (8-9-sinflar)da o'qituvchilar o'quvchilar oldilariga pedagogik talablarni qo'yish, ijtimoiy topshiriqlarni berishda bevosita emas, balki maktab yoki sinf o'quvchilarining o'zini-o'zi boshqarish organlari orqali bilvosita ta'sir ko'rsatishlari tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

5. O'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari xizmatidan foydalanish. Ommaviy axborot vositalari ko'p sonli shaxslarga zarur ma'lumotlarni tezkor yetkazib berish, aholi o'rtasida turli sohalarga oid nazariy bilimlarni keng targ'ib qilish imkoniyatiga ega. Matbuot organlari hamda bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan internet xalqaro axborot tarmog'i sahifalari orqali berilayotgan materiallar, radio, televidenie eshittirish va ko'rsatuvlar o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda qimmatli manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. O'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish jarayonida o'qituvchilar hamda ota-onalarning ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanishlari mazkur yo'nalishda respublika va xorijiy mamlakatlarda qo'lga kiritilgan yoki kiritilayotgan tajribalar bilan tanishishlarini ta'minlaydi.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimida ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish jarayoni uzviylik, tizimlilik, diffensiallik asosida olib borilishi hamda pedagogik shart-sharoitlar to'raligicha hisobga olinishi maqsadga mivofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. 2016.13-b.

2. Ertoeva M. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimini sifat-samaradorligini oshirish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Andijon, 2019.

3. Комилова Ф.М. Бошлангич синф укучиларида ташкilotчилик сифатларини шакллантириш. "Yangi nashr" nashriyoti. Toshkent-2010.

4. Комилова Ф.М. Таълим тизимини бошқариш. Укув қулланма. "Ишончли ҳамкор" Toshkent-2021.

5. Каримова О. Конституция алифбоси / 2-синф ўқувчилари учун ўқув қўлланма.-Т.:Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2007. -32 б.

6. Карлоф Б., Седерберг С. Вызов лидеров / Пер. со швед. А.Волкова. - М.: Дело, 1996. -351 с.

7. Норбоев О. Мамлакат тараккиётида ёшларнинг урни. "Халқ сузи" газетаси. 2021й. 30.12.